

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2024

## BOLALARING PSIXIK RIVOJLANISHIDA KORREKSIYA VA KOMPETENSIYA O'RNI

Mashrabboyeva Nazira,

Andijon davlat pedagogika instituti  
logopediya yo'nalihi 1-bosqich 101-guruh talabasi

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada bolaning psixik rivojlanish sohalarida kompetensiya va korreksiyaning o'rni haqida so'z yuritilgan. Jumladan, psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo masalasi dolzarblii borasidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** bola, psixik rivojlanish, korreksiya, kompetensiya, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish, maktabgacha ta'lif, islohot, davlat standarti, o'quv dastur, tarbiyachi pedagog.

### KIRISH

Bola psixikasining rivojlanishi o'ta murakkab va qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan prosesdir, har qanday boshqa rivojlanishdagi kabi, bunda ham miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga, o'tishlarga, "sakrashlar"ga olib keladi. Masalan, bolada so'z boyligining asta-sekin ortib borishi tilning grammatik qurilishini egallahsga, ayrim xatti-harakatlar va yurish-turishlarning ko'p marta takrorlanishi esa shaxsda muayyan ko'nikma, odat, qat'iy xususiyatlar kabilarning shakllanishi bilan yakunlanadi. Bola psixikasi rivojlanishining eng umumi qonuniyatlariga, birinchidan izchillik integratsiyasini, ya'ni bolaning dastlabki tarqoq psixik holatlarini shaxsning barqaror psixik xislatlariga, muayyan hodisalarga nisbatan ayrim-ayrim qarashlarni yaxlit dunyoqarashga birlashtirish; ikkinchidan, bola shaxsidagi ayrim proseslar, funksiyalar va xislatlarning notejis rivojlanishining; uchinchidan, ba'zi funksiyalar kamchiliklarni boshqa funksiyalar bilan to'ldirilishini (kompensatsiya) ta'minlovchi plastiklikni kiritish mumkin.

Bola psixikasining integratsiyasi, masalan, alohida predmet va hodisalarni to'liq idrok qilish asosida kuzatuvchanlikning, ayrim mehnat topshiriqlarini mehr-muhabbat bilan bajarish asosida mehnatsevarlikning shakllanishiga yaqqol namoyon bo'ladi.

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'naliislarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiatini va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.
2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.
3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.
4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.
5. Ommaviy umumi o'rta ta'lif manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumi va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.
6. Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'naliishlarini aniqlash.
7. Anomal bolalar bilan koreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasi yaratish.

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2024

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsiional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va mакtabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, yetarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

O'bekistonda XX asrning 60-yillarda ilk bor psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun mакtab internatlar va maxsus ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ham o'qitishlari mumkin.

Ta'lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Boshlang'ich umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati – 4-5 yil).
2. Asosiy umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati — 5 yil).

Bolalarni korreksion muassasalarga qabul qilish PTPKning xulosasi bo'yicha ota-onalari yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarning roziligidagi ko'ra amalga oshiriladi. Sinf 12 nafar o'quvchidan iborat bo'ladi. Ular rivojlanishidagi nuqsonlarning bartaf etilishiga ko'ra ommaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'tkazilishlari mumkin.

Ikkinci bosqichda ta'lim (V-IX sinflar) ayrim o'zgartirishlar (muayyan o'quv mavzulari yoki ulardagi materiallar hajmini qisqartirish) bilan ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ta'limning 1-bosqich muddati zarur holatlarda 1 yoki hatto 2 yilga uzaytirilishi mumkin.

Ular bilan ishlashda asosiy vazifa — bolalar tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallab olinishiga yordam berish, ularda kuzatuvchanlik va amaliy o'quv faoliyati tajribasini hosil qilish, mustaqil ravishda bilimlarni egallash va amaliyotda ulardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Bunday o'quvchilar individual yondashishni talab etadilar. Ularni korreksion o'qitish davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari bilan birga amalga oshirilishi zarur. O'quv materiali hamda ta'lim metodi PROQ bolalarning rivojlanish darajalariga mos holda tanlanishi zarur.

Aqli zaiflik tuzatib bo'lmaydigan hodisa sifatida e'tirof etilsa ham, uni korreksiya qilib bo'lmaydi degan ma'noni anglatmaydi. Aksariyat tadqqiqotlarda maxsus (korreksion) ta'lim muassasalarida metodik jihatdan to'g'ri yo'l utilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobjiy natijaga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Aqli zaif bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning olidini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o'z vaqtida o'tkazish juda muhimdir.

Aqli zaif bolalar oila yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yaslilarida tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo'lgan maktabgacha yoshdagagi bolalar ommaviy bolalar bog'chalaridagi maxsus guruhlarga qabul qilinishlari mumkin. Ularda o'qitish maxsus bolalar bog'chasidagi kabi maxsus dastur bo'yicha olib boriladi.

Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy

talab bo‘lib, u o‘quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchilarning egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, ta’limda har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda, shu fanning o‘ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta’limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o‘qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir.

Bugungi kunda dunyo ta’limini yangilashning asosiy yo‘nalishi ta’lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyonи, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko‘ra olish, unda tizimli faoliyat ko‘rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

**Xulosa.** Psixikaning rivojlanishi oqibat natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta’surotlarga bog‘liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo‘lmaydi. Odamning (bolalarning, o‘quvchining) sotsial tashkil topgan va stumullashtirilgan faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi xamda sharoitidir. Bolaning psixik rivojlanishida korreksiya va kompetensianing o‘rni kata va beqiyosdir.

## REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. 2019 yil 16 dekabr. <https://lex.uz>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VMQ 802-sonli qarori. 2020 yil 22 dekabr. <https://lex.uz>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori. <https://lex.uz>.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqiga murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. <https://president.uz>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va YUNESKO hamkorligida. (2018) I.V. Grosheva, L.G. Evstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V. Pak, G.E. Djanpeisova, M.R. Isxakova. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat O‘quv dasturi. Toshkent.
6. Parmonov B.E. (2018) Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. “Science and Education” Scientific Journal. 350-bet.
7. Qilichova M. X. (2021) Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari. //XXI asr ta’lim tizimida innovatsion va integratsion yondoshuvlar mavzusidagi Xalqaro ilmiy – amaliy onlayn konferensiysi materiallari. Jizzax